

YURIDIK MATN TARJIMASIDA LINGVISTIK-PRAGMATIK TAHLIL

G'ofurova Zuhra

ToshDO'TAU talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yuridik matnlar tarjimasida yuzaga keladigan lingvistik, pragmatik va huquqiy muammolar funksional-ekvivalentlik tamoyili asosida tahlil qilinadi. O'zbek tilshunosligida mavjud ilmiy qarashlarga tayangan holda tarjimada uchraydigan xatoliklar sabablari ochib beriladi hamda ularni bartaraf etish yo'llari amaliy misollar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: *yuridik tarjima, funksional ekvivalentlik, huquqiy adekvatlik, pragmatika, terminologiya, diskurs*

Abstract

This article analyzes linguistic, pragmatic, and legal challenges in translating legal texts based on the principle of functional equivalence. Drawing on Uzbek linguistic research, the study identifies common translation errors and explains their causes, offering practical solutions through detailed examples.

Keywords: *legal translation, functional equivalence, legal adequacy, pragmatics, terminology, discourse.*

Аннотация

В статье анализируются лингвистические, прагматические и правовые проблемы перевода юридических текстов на основе принципа функциональной эквивалентности. На основе узбекских научных источников раскрываются причины переводческих ошибок и предлагаются пути их решения с использованием практических примеров.

Ключевые слова: *юридический перевод, функциональная эквивалентность, правовая адекватность, прагматика, терминология, дискурс.*

Kirish

Yuridik matnlar tarjimasida tarjimashunoslikning eng murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bunda faqat til emas, balki huquqiy tizim, madaniyat va normative tafakkur ham ishtirok etadi. Sh. Safarov "Pragmalingvistika" asarida ta'kidlaganidek, har qanday matn tarjimasida uning kommunikativ maqsadini saqlash birlamchi vazifa hisoblanadi. Bu fikr ayniqsa yuridik matnlarga nisbatan dolzarb, chunki ularning har bir elementi muayyan huquqiy oqibatni keltirib chiqaradi [Safarov, 2008].

Yuridik matnlarning o'ziga xosligi shundaki, ular oddiy axborot yetkazish bilan cheklanmaydi, balki huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Shu bois tarjimada kichik xatolik ham mazmunning buzilishiga yoki noto'g'ri huquqiy talqinga olib kelishi mumkin. B. Yo'ldoshev tarjima nazariyasiga bag'ishlangan ishlarida tarjimaning adekvatligi faqat

lingvistik moslik bilan emas, balki funksional moslik bilan belgilanishini qayd etadi [Yo'ldoshev].

Yuridik tarjimada funksional-ekvivalentlik muammosi. Funksional ekvivalentlik yuridik tarjimaning asosiy mezonini hisoblanadi. Bu tushuncha matnning tashqi shaklini emas, balki uning huquqiy vazifasini saqlashni anglatadi. Masalan, ingliz tilidagi quyidagi jumlaning ko'rib chiqamiz: "The agreement shall be binding upon the parties".

Ko'pincha bu gap "Shartnoma tomonlar uchun majburiy bo'ladi" deb tarjima qilinadi. Ushbu tarjima grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, huquqiy nuqtayi nazardan yetarli aniqlikka ega emas. Chunki "shall be binding" iborasi nafaqat majburiylikni, balki huquqiy kuchga egalikni ham bildiradi. Shu sababli to'g'riroq variant: "Mazkur shartnoma tomonlar uchun majburiy huquqiy kuchga ega hisoblanadi". Bu tarjimada "huquqiy kuchga ega" komponenti qo'shilishi orqali asl matndagi normative mazmun to'liq ifodalanadi. S. Rahmatullayev izohli lug'atida "majburiy" va "kuchga ega" tushunchalari turlicha semantic yuklama berishi qayd etiladi, bu esa ularni birgalikda qo'llash zarurligini ko'rsatadi [Rahmatullayev].

Diskursiv moslik va rasmiy uslub muammolari. Yuridik matnlar o'ziga xos diskursga ega bo'lib, u rasmiylik, standartlik, va qat'iylik bilan tavsiflanadi. R. Qo'ng'irov nutq madaniyatiga oid tadqiqotlarida rasmiy uslubning asosiy belgilaridan biri standart iboralarning qat'iy qo'llanishi ekanini ta'kidlaydi [Qo'ng'irov]. Bunga misol tariqasida quyidagi gapni ko'ramiz: "This agreement is made and entered into on...". Ba'zan bu gap "Ushbu shartnoma tuzildi" deb tarjima qilinadi. Biroq bu variant asl matndagi huquqiy ma'noni to'liq aks ettirmaydi. "Mazkur shartnoma quyidagi sanada tuzildi va kuchga kiritildi..." tarzida qilingan tarjima ingliz tilidagi ayni ma'noni saqlab qola oladi. Bu yerda "entered into" iborasining "kuchga kiritildi" deb tarjima qilinishi uning huquqiy amal qilish boshlanishini ifodalaydi. Agar bu qism tushirib qoldirilsa, hujjatning amal qilish muddati noaniq bo'lib qoladi.

Terminologik muammolar va ularning sabablari. Yuridik terminlar qat'iy va aniq ma'noga ega bo'lganligi sababli ularni erkin tarjima qilish mumkin emas. D. Xudoyberganova matn lingvistikasiga oid ishlarida terminlarning tizimlilik ularning asosiy xususiyati ekanini ta'kidlaydi [Xudoyberganova]. Namuna sifatida "Liability" so'zini ko'rib chiqamiz. "Liability" so'zi ko'pincha "majburiyat" deb tarjima qilinadi. Ammo bu noto'g'ri. Chunki "majburiyat" – obligation, "liability" esa javobgarlikni anglatadi. Bu farq juda muhim, chunki majburiyat bajarilishi kerak bo'lgan harakatni bildirsa, javobgarlik buzilish oqibatidagi huquqiy chorani anglatadi. Shu sababli noto'g'ri tarjima huquqiy mazmuni butunlay o'zgartirib yuboradi.

Pragmatik muammolar va kontekst. Pragmatik muammolar matnning qo'llanish vaziyati bilan bog'liq. Sh. Safarov ta'kidlaganidek, nutqning ma'nosi faqat til birliklari bilan emas, balki kontekst orqali ham shakllanadi [Safarov, 2008]. Masalan, "The tenant may terminate the lease". Aslida, "may" so'zi "mumkin" deb tarjima qilinadi, lekin bu yerda oddiy ehtimollik emas, balki huquqiy ruxsat ma'nosi mavjud. Shuning uchun ham to'g'ri tarjima

quyidagicha bo'ladi: "Ijarachi shartnomanni bekor qilish huquqiga ega". Bu variantda "huquqiga ega" iborasi orqali ruxsat emas, balki qonuniy imkoniyat ifodalanadi.

Grammatik struktura va uning ahamiyati. Yuridik matnlarda Grammatik vositalar ham huquqiy ma'no yuklaydi. Modal fe'llar muhimligini misol yordamida ko'ramiz. "The employee shall comply with the rules". Ko'pincha "rioya qiladi" deb tarjima qilinadi. Bu esa oddiy fakti bildiradi. To'g'ri tarjima: "Xodim qoidalarga rioya etishi shart". Bu yerda "shart so'zi majburiylikni aniq ifodalaydi. B. Yo'ldoshev ham tarjimada modal ma'nolarni to'g'ri ifodalash zarurligini alohida ta'kidlaydi [Yo'ldoshev].

Xatolar sabablari va ularni bartaraf etish usullari. Yuridik tarjimada xatolar asosan tarjimonning huquqiy bilimining yetishmasligi, terminologiyani noto'g'ri qo'llash, kontekstni e'tibordan chetda qoldirish kabi sabablar orqali yuzaga keladi.

Bunday muammolarni bartaraf etish uchun tarjimon huquqiy manbalarni o'rganishi, maxsus lug'atlardan foydalanishi, parallel matnlarni tahlil qilishi zarur. R. Qo'ng'irov ham nutq madaniyatini shakllantirishda me'yoriy manbalarga tayanish muhimligini ta'kidlaydi [Qo'ng'irov].

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuridik matnlar tarjimasi oddiy lingvistik jarayon emas, balki murakkab huquqiy-lingvistik faoliyatdir. Unda funksional ekvivalentlikni ta'minlash, diskursiv moslikni saqlash va pragmatik omillarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Tarjimon faqat tilni emas, balki huquqiy tizimni ham chuqur bilishi kerak. Aks holda, tarjima noto'g'ri bo'lish bilan birga huquqiy jihatdan xavfli bo'lishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. (2008). Pragmalingvistika.–Toshkent:O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Qo'ng'irov R. (2010). Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent.
3. Rahmatullayev S. (2013). O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
4. Xudoyberganova D. (2015). Matn lingvistikasi. – Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Yo'ldoshev B. Tarjima nazariyasi asoslari. –Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti.
6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: Adliya vazirligi.